

**SOPOL SAN'ATINING ILDIZLARI VA TARAQQIYOTI**

Shahrisabz davlat muzay qo'riqxonasi

Gavhar Eshova, Gulnoza Umirova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada asosan, sopol san'atining ildizlari, taraqqiyoti VI-V ming yilliklardan, XIV-XVI asrlargacha bo'lgan davrlarda sopol san'ati haqida ma'lumotlar keltirilgan*

Аннотация: *В данной статье в основном приведены сведения об истоках и развитии гончарного искусства, начиная с V–I тысячелетий до XIV–XVI веков, а также рассматриваются особенности керамического искусства в эти периоды.*

Annotation: *This article mainly presents information about the origins and development of pottery art from the 5th–1st millennia up to the 14th–16th centuries, and discusses the characteristics of ceramic art during these periods.*

Kalit so'zlar: *Sopol, Iroq va Tegr hududlari, loy, sopolchilik, cho'llar, hayvonlar, qushlar, naqsh, temir, qog'oz, yog'och, kulol g'ildiragi, xumlar, chiroqlar, haykalchalar va ibodatxonalar, Neolit davri manzilgohlari, Toshkent vohasi, Qashqadaryo va Zarafshon vodiylari*

Ключевые слова: *керамика, районы Ирака и Тегра, глина, гончарное дело, пустыни, животные, птицы, орнамент, железо, бумага, дерево, гончарный круг, кувшины, светильники, фигурки и храмы, неолитические поселения, Ташкентский оазис, Кашкадарья, Зарафшанские долины.*

Keywords: *pottery, the regions of Iraq and Tegr, clay, ceramics, deserts, animals, birds, ornament, iron, paper, wood, potter's wheel, jars, lamps, figurines and temples, Neolithic settlements, Tashkent oasis, Kashkadarya, Zarafshan valleys.*

Sopol san'ati insoniyat tarixidagi eng qadimiy hunarlardan biridir. Inson ilk bor loyni suv bilan aralashtirib, quyoshda yoki o'tda pishirish orqali turli idishlar yasay boshlagan davrlardanoq sopolchilik san'ati shakllana boshlagan. Bu san'at



turiga bo'lgan ehtiyoj insonning kundalik hayoti, oziq-ovqat saqlash, suv tashish, taom tayyorlash kabi zaruriyatlardan kelib chiqqan.

Sopol buyumlarning eng qadimgi namunalarini miloddan avvalgi VI-V ming yilliklarga oid deb hisoblanadi. Miloddan avvalgi 10- minginchi yillarda Iroq va Tegr hududlarida odamlar ilk bor tuproqdan idish yasay boshladi. Ularda hozirgi kabi zavodlar yo'q edi. Maxsus uskunalar ham. Hamma ish qo'lda bajarilar, loy yasalar, shakl berilar edi. Terilgan donni saqlash, suvni to'kib yubormaslik, ovqatni yig'ish uchun maxkam va ixcham idish zarur bo'lgan. Mana shu ehtiyoj sopol yaratilishiga asos bo'lgan. Bu g'oya shu qadar keng tarqaldiki oradan yillar o'tib, Misrda, Eronda, Xitoyda, Hindistonda hatto Markaziy Osiyoda ham sopolchilik rivoj topdi. Insonlar loyni pishirishni o'rgandilar. Idishlar endi quyoshda, aloxida yondirish qurilmalarida, olovda pishirila boshladi. Bu jarayon idishlarni bir-biridan sifatli va estetik jihatdan go'zal qildi.

Sopol buyum aslida foydali maqsad uchun yaratilmagan. Unda insonning zavqi, didi, ma'naviy qarashi ham namoyon bo'lgan. Vaqt o'tib sopol buyumlar saqlash vositasi, balki, bezak, hadya hatto din va e'tiqod bilan ramz sifarida ham kuzatila boshladi. Sopol buyumlar ustida tushirilgan har bir naqsh, shakl va rangi odamlarning ruhiyatini, urf-odatini, e'tiqodini ifoda ettira boshladi. Ba'zilar cho'llar, hayvonlar, qushlar chizilgan bo'lsa boshqalarda inson qiyofasi, nigohlar, timsollar aks ettirilgan. Demak sopol buyumlar o'z davrining surat galeriyasi. Tarixni so'zlovchi parchalar.

Har qanday arxeologik qazilmada eng ko'p topiladigan narsa bu sopol parchalari. Negaki temir zanglab qoladi, qog'oz eriydi, yog'och sinib ketadi. Faqat sopol qoladi. Ilk davrlarda yaratilgan sopol idishlarning yasaliş uslubi ancha og'ir bo'lgan. Ko'p vaqt talab qilingan. Eng muhimi har bir idish boshqasidan farq qilgan. Shu sabab odamlar o'zlariga savol bergan. Qanday qilib har xil, chiroyli shaklga keltirsam bo'ladi. Ana shundan keyin esa sopol aylantirgich "kulol g'ildiragi" ixtiro qilingan. Qadimgi Misr, Xitoy, Eron va Hindiston hududlarida sopol g'ildirakli aylantirgich ishlab chiqqan. Bu g'ilof ustini qo'yish, pastdan aylantirish va yuqorida idish shaklini yaratish uchun juda qulay texnologiya bo'lgan. Bu qurilma g'ildirak,



o'q va ustundan iborat bo'lib, ustalar endi qo'lida emas, balki g'ildirak harakatida turib, silliq, qattiq, yuvvosh va muvozanatli idishlar yaratisha boshlashgan. Buning natijasida sopol buyum juda tez tayyorlanadi. Doimiy shaklga ega bo'ladi va eng muhimi usta o'z uslubini yaratadi.

Misr sopol san'ati uchun muhim markaz bo'lgan. Bu yerda oddiy idishlar emas katta- katta xumlar, chiroqlar, haykalchalar va ibodatxonalar uchun maxsus idishlar yasalgan. Misrliklar sopolni qizdirish, uni sirlash bo'yicha ilk tajribalarini amalga oshirishgan. Eronda esa sopol ancha yuksak uslubda rivojlangan. Bu yerdagi ustalar har bir idishda shakl, naqsh borligiga va eng muhimi nur tushganda soya qay yo'nalishda bo'lishigacha e'ribor berishgan. Eronda sopol idishlar bezak va xattotlik bilan mashhur bo'lgan.

O'rta Osiyoda sopol buyumlarning eng qadimgi namunalarini Neolit davri manzilgohlaridan topish mumkin. Toshkent vohasi, Qashqadaryo va Zarafshon vodiylaridan topilgan dastlabki idishlar qo'lida shakllantirilgan, qum aralash loydan yasalgan va past haroratda pishirilgan. Ularning bezaklari sodda, asosan tirnalgan chiziqlardan iborat bo'lgan. Bu davr sopolchiligida kundalik ehtiyojlar asos bo'lib xizmat qilgan. O'rta asrlarga kelib Islom madaniyati kirib kelishi bilan sopolchilik texnikasi va badiiy ifodasi sezilarli darajada boyidi. O'rta Osiyodagi arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki miloddan avvalgi ming yilliklardayoq Buxoro, Samarqand, Afrosiyob, Kesh atroflarida aylantirgichda yasalgan sopol buyumlar mavjud bo'lgan.

Temuriylar davrida XIV-XVI asrlarga oid sopol buyumlar esa o'zining nafisligi va badiiy bezaklari bilan ajralib turadi. Bu davrda sopol san'ati yanada rivojlanib, idishlarga rangli sirlar berilgan, naqshlar murakkab shakllarda ishlangan. Ayrim buyumlarda ko'k, yashil, moviy va jigarrang sirlar bilan bezak berish uslubi qo'llanilgan. Bu esa ko'rinib turibdiki o'sha davrda sopolchilik texnikasining ancha yuksak darajada bo'lganini ko'rsatadi. Shu davrda Samarqand- davlat poytaxti sifatida eng yirik kulolchilik markaziga aylangan. Hirot- tasviriy san'at va amaliy san'atlar bilan bir qatorda sopol buyumlar ishlab chiqarishda ham mashhur bo'lgan. Shahrisabzda esa mahalliy an'analarga tayangan holda yuqori sifatli idishlar



yaratilgan. Bu markazlarda sopol buyumlar saroy ehtiyojlari, bozor savdosi va xalq iste'moli uchun ko'p ko'lamda ishlab chiqarilgan. Temuriylar davrida sof sopolchilik bilan bir qatorda koshin ishlab chiqarish san'ati ham mukammal rivojlangan. Temuriylar davrida sopolchilik, yangi bezak uslublari, ranglar palitrasi kengayishi, texnologiyaning takomillashishi, sopol va koshinkorlikning uyg'unlashuvi natijasida O'rta Osiyo san'atining eng yuksak bosqichlaridan biriga aylandi. Bu davr buyumlari hozirgi kunda muzeylarning eng qimmatli eksponatlaridan hisoblanadi.

Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasi O'zbekistonning eng qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lib, unda milliy tariximiz, madaniyatimiz va san'atimizning turli davrlariga oid qimmatli yodgorliklar saqlanadi. Muzey fondida ayniqsa sopol buyumlar alohida o'rin tutadi. Bu buyumlar ajdodlarimizning san'atga bo'lgan chuqur hurmati, didi va ijodkorlik salohiyatini aks ettiradi. Muzeyda VI-VII asrlarga oid eng qadimgi sopol buyumlar saqlanmoqda. Ular orasida maishiy hayotda ishlatiladigan idishlar, xumlar, laganlar, vaza va qadah idishlar, bolalar sut idishlari, isiriqdonlar, ostadonlar hamda turli bezakli sopol haykalchalar mavjud. Ushbu buyumlar o'sha davr aholisi tomonidan tabiiy loydan, qo'lda yoki oddiy charxda yasalgan bo'lib, ularning ustiga o'simliksimon va giometrik naqshlar ishlangan. Ranglari tabiiy yer ohanglarida bo'lib, bu ularning qadimiyligini yanada boyitadi. Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasida saqlanayotgan ushbu noyob sopol namunalri o'z davrining madaniy, ijtimoiy va badiiy hayotidan hikoya beradi. Ular orqali biz o'tgan asrlarda yashagan xalqning turmush tarzini, estetik qarashlarini va hunarmandchilik an'analarini o'rganishimiz mumkin.

Bugungi kunda bu sopol buyumlar nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki ilmiy va madaniy jihatdan ham beqiyos manba sifatida qadrlanadi. Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasidagi ushbu durdonalar o'zining noyoblighi bilan O'zbekistonning boy madaniy merosini namoyon etadi va yosh avlodni ajdodlar yaratgan san'at olamiga oshno etadi. O'zbekistonda sopolchilik san'ati uzoq tarixga ega bo'lib, u xalq amaliy bezak san'atining muhim turlaridan biri hisoblanadi. Bu san'at xalqimizning didi, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiradi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarov A., Shirinov T. Sopolli madaniyati va O'rta Osiyoda eneolit davri.- Toshkent:Fan, 1993.
2. N. Qosimov. O'rta Osiyo sopolchilik maktablari. – Samarqand 2021.
3. Berdimurodov A. O'zbekiston sopolchilik san'ati tarixi.- Toshkent 2000.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi-"Temuriylar davri san'ati", "Sopol buyumlar bo'limlari".
5. Internet materiallari. Wikipedia.org.